




# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

## 21-OKTYABR - DAVLAT TILI HAQIDAGI QONUN QABUL QILINGAN KUN



*Til — shuncha sharafi  
bilan nutqning  
qurolidir. Agar nutq  
noma'qul bo'lib chiqsa  
— tilning ofatidir.*

*Alisher Navoiy*



## Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

## Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov  
Yorqinjon Odilov  
Jabbor Eshonqulov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
To'lqin Saydaliyev  
Barno Buranova  
Zulxumor Mirzayeva  
Qozoqboy Yo'ldoshev  
Bahodir Jovliyev  
Salima Jumayeva  
Qayum Baymirov  
Manzar Abdulxayrov  
Aljon Safarov  
Husniddin Norqulov  
Odiljon Boynazarov  
Madina Nuriddinova  
Latifa Xudayqulova  
Barno Kadirova  
Nargiza Mirzayeva  
Guli Shukurova  
To'maris Butunbayeva  
Okila Turakulova  
Yuldosh Raxmatov  
Ramziddin Abdusatorov  
Feruza Manukyan  
Gulchexra Keldiyorova

## Axborot hamkorimiz:



## Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA  
Shabnam G'ANIYEVA

## Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

## Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

## M U N D A R I J A

### Dolzarb mavzu

- Akram Hamdamov.** Xalq tilining jozibasi.....3  
**Surayyo Ziyotova.** Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida turkiy somatizmlarning qo'llanishi.....5

### Tilshunoslik

- Maxfuza Karaxodjayeva.** Alisher Navoiy lingvistik merosining mazmun va mohiyati.....8  
**Yulduz Eshmatova.** Istiqlol davri o'zbek qissachiligidagi ayollar ruhiyatini ifodalashdagi yordamchi badiiy vositalar.....10  
**Nafisa Sadinova.** O'zbek tili rasmiy uslubida qoliplashgan jumlalarning qo'llanishi.....13  
**Shokirjon Aripov, Habibulloh Olimjonov.** Arab tilshunosligida nutq tovushlarining hosil bo'lish mexanizmlari.....15

### Adabiyotshunoslik

- Hoshimjon Ahmedov.** O'zbek adabiyotida sajli nasriy she'rlar.....19  
**Nilufar Sultonova.** Adabiy asarda syujet dinamikasi va ta'sir nuqtalari.....21

### Tadqiqot

- Nafosat O'roqova.** O'zbek mumtoz shoirlari ijodida floristik obrazlarning badiiy-estetik vazifalari.....24  
**Zakir Bazarov.** Badiiy tarjimada leksik va stilistik bo'yodkorlik muammolari..28  
**Dildora Bazarova.** Variantlilik haqida.....31  
**Агата Осипова.** К вопросу о необходимости изучения устного народного творчества на начальном этапе подготовки бакалавра-филолога.....33  
**Hulkar Aliqulova, Nigora Raxmatova.** Marosim folklori bilan bog'liq o'ziga xos tamoyillar.....36  
**Sobir Mansurov.** "Gulshani Dilafgor"

to'plamidagi lirik she'rlar tasnifi.....39

**Salima Karimova, Elinura Zokirova.**

O'quv jarayonini samarali tashkil etish metodologiyalari va ularning innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar.....41

**Farxad Babadjanov.** Hujjat matnlarining lingvistik ekspertizasi....43  
**Shahzoda A'zamova.** Tohir Malikning "Alvido bolalik" asarida terminlarning lingvokulturologiyasi.....47

**Aziza Erkinova.** Fors-tojik, o'zbek, ingliz adabiyoti she'riyatida "Noma (maktub)" janrining shakllanishi.....49

**Aziza Yusupova.** Jahon tilshunosligida konnotatsiya masalalarining antropotsentrlik paradigma asosidagi tadqiqi.....51

**Yorqin Djo'rayev.** Badiiy asarlarning falsafiy-psixologik tahlili vositasida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish metodikasi.....54

**Shozod Normurodov.** Imom Moturidiy va u mansub bo'lgan tarixiy-ilmiy muhit tasviri.....60

**Shaxzoda Nurillayeva.** O'zbek tilida odob-axloqni ifodalovchi birliklarning lingvomadaniy talqini.....63

**Ro'zixon Mavlanova.** Ko'ngil ovi azmi qarori yoxud Jon nisor ul sayyod uchunkim.....65

**Umidaxon Turakulova.** Badiiy matnda o'xshatishlarning o'rni.....68

**Асаль Эргашева.** О сущности функционального подхода к изучению лексико- грамматических явлений русского языка.....71

**Наргиза Ходжаева, Виктория Гимадетдинова.** Функционирование и трансформация фразеологизмов в русском языке XXI века.....73

**Улугбек Баисов.** Изучение

плеонастических выражений в современной лингвистике.....	75	ixtiloflar.....	103
<b>Мамура Маллаева.</b> Роль русского языка в современных условиях.....	77	<b>Muhayyo Ismailova, Sagdiyana Abdusattarova, Jahongir Asatullayev.</b> O'quvchilarning salomatlik darajasini aniqlash va sportga istiqbolliligini tashxis etish.....	105
<b>Akmaljon Baratov.</b> O'rta masofaga yuguruvchi maktab o'quvchilari mashg'ulotlarini tashkil etish.....	75	<b>Urmonoy Toshmatova.</b> Boshlang'ich sinflarda mantiqiy masalalarни hayotga tatbiq etish.....	107
<b>Исломжон Махсумов.</b> Комплексный контроль ловкости в процессе многолетней подготовки футболистов.....	82	<b>Jamshid Atavullayev.</b> Anton Pavlovich Chexov ijodining o'zbek adapbiyotiga ta'siri masalalari.....	109
<b>Saodatkhan Khodjaeva.</b> Features of translation of brand names and advertising slogans,.....	84	<b>Khurshida Toshova.</b> Perl Bak asarlarida ayol matonati tavsifi.....	110
<b>Dildora Babaxanova.</b> The role of motivation in language learning.....	87	<b>Zarina Homidova.</b> Boshlang'ich sinflarda o'quv lug'atlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish usullari.....	113
<b>Nargiza Aminova.</b> Language evolution in the age of social media: a linguistic dilemma.....	89	<b>Dilorom Mengziyoyeva.</b> Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida komil shaxs tarbiyasiga oid qarashlar.....	115
<b>Ulmira Embergenova.</b> Similarities and differences in professional lexicon and terminology in english language teaching.....	92	<b>Ismigul Do'stmurodova.</b> Xalq dostonlarida obraz va obrazlilik masalalari.....	117
<b>Kichik tadqiqot</b>		<b>Kumush Odina Qarshiboyeva.</b> Mansur Jumayev she'riyati haqida.....	120
<b>Inomiddin Imomov.</b> Kredit modul tizimi: muammo va yechimlar (nodavlat oliv ta'lrim muassasalari misolida).....	97	<b>Nigora Mirzoidova.</b> The role of technology for developing critical thinking through reading and writing in improving the translation competence of university students.....	122
<b>O'Imas Saidov.</b> Ish yuritishga oid terminologik birliklarning shakliy tavsifi.....	99	<b>Yoshlik ilhomlari</b>	
<b>Akbar Ruziyev.</b> Tilshunoslikda diskurs atamasi talqini.....	101	<b>Hakimbek G'ulomjonov.</b> Yigirma yoshimda ellikka kirdim.....	124
<b>Parviz Izzatillayev.</b> "Majolis un-nafois" va uning forscha tarjimasi "Latoyifnoma" orasidagi ayrim			

## ONA TILIM

Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,  
She'r yozdimu bo'lak ishni qotirmadim.  
Tilim turib o'z tilimda gapirmadim,  
Bir eslasam eziladi bag'ri-tilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Onam «erkam» deb quchganda tunlar yarim,  
Erkim yo'q deb zirqirardi bir joylarim,  
Parovozeni hansiratgan bug'doylarim,  
Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,  
O'zbekni qon qaqshatganni o'zbek siylar,  
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,  
Topganimiz handalakdek tilim-tilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimdir mayda millat bo'ldi, kimdir katta,  
Katta millat – Afandisi yo'kdir hatto,  
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda,  
Zulm o'tsa faqat sendan o'tdi zulm,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Sen bo'imasang nima bizga silliq she'rlar,  
Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q derlar,  
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,  
Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Bir qarasam har shevangda ming jilolar  
Har novdangda, har mevungda ming jilolar.  
Qodiriyilar, Cho'lpollar-u, Abdullolar,  
Sening qaytgan kuning men tug'ilgan yilim,  
Ona tilim, ey muqaddas Ona tilim.

*Muhammad Yusuf*

O'UM uzlusiz ta'larning barcha bo'g'in va tarmoqlarida axborot muhitini mustahkamlash va rivojlantirish va resurs bilan ta'minlashning muhim omili sanaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўкув юртларида ўкув жараёнини кредит-модуль тизимида ташкил қилиш. Ўкув қўлланма. Т.: "Tafakkur" нашриёти, 2020. 120-бет.
2. Ўринов В. Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларида ECTS кредит-модуль тизими: асосий тушунчалар ва қоидалар. Ўкув қўлланма. Нью Брансвик Университети, 2020 й.
3. Inomiddin Imomov. English Speaking Nation: Uzbekistan. 2022/11/30. Journal WATESOL Newsletter. Publisher WATESOL Volume 3 Issue Fall 2022, Pages 22-25.
4. Inomiddin Imomov. Teaching economic terminology through interactive techniques. Conference Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliv ta'larning trasnformatsiyasi. Volume 1. Issue1. 2022/11/30. Pages 365- 367
5. Baybaeva, M. K., & Imomov, I. A. (2021). Organizational and regulatory framework for creating a healthy and creative environment in management activities based on the supervision skills of managers in the context of modernization of education. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(5), 752-758.
6. Imomov, Inomiddin A. "COMPETENCY BASED TEACHING OF FOREIGN LANGUAGE." COMPETENCY 10 (2019): 10-2019.
7. Parhadjanova S. S. MASTERING THE ART OF READING: TECHNIQUES AND STRATEGIES TO ENHANCE READING SKILLS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – С. 482-485.
8. Saidakbarova S. P. et al. The Role Of Speech Genres In The Communication Process //Educational Administration: Theory and Practice. – Т.: 2024.30.№. 5. 2500-2503-с.
9. <http://bimm.uz> – Олий таълим тизими педагог ва раҳбар кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш бош илмий методик маркази

O'Imas SAIDOV,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
“O'zbek tilshunosligi” kafedrasи mudiri, dotsent,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



## ISH YURITISHGA OID TERMINOLOGIK BIRLIKLARNING SHAKLIY TAVSIFI

**Annotatsiya:** terminologik tizimda tabiiy tilga xos lingvistik qonuniyatlar ham o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ish yuritish terminlarini ham tartibga solib turish zaruriyati mayjud. Ushbu maqolada (O'zbek tilining izohli lug'atidagi) ish yuritish terminlarining struktur tavsifini o'rganish orqali milliy va o'zlashma terminlardan ish yuritish terminologiyasining shaklga oid ba'zi xususiyatlari haqida fikr yuritiladi, taklif va mulohazalar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** termin, lug'at, texnik terminlar, metodologik asos, ish yuritish terminlari.

**Аннотация:** лингвистические законы, свойственные естественному языку, также выражаются в терминологической системе. Поэтому возникает необходимость регулирования условий работы. В данной статье (в толковом словаре узбекского языка) путем изучения структурного описания деловых терминов рассматриваются некоторые особенности формы деловой терминологии из национальных и родных терминов, высказываются предложения и замечания.

**Ключевые слова:** термины, лексика, технические термины, методологическая основа, деловые термины.

**Annotation:** linguistic regularities specific to natural language are also expressed in the terminological system. Therefore, there is a need to regulate the working terms. In this article (in the explanatory dictionary of the Uzbek language), by studying the structural description of business terms, some features of the form of business terminology from national and native terms are discussed, suggestions and comments are made.

**Key words:** terms, vocabulary, technical terms, methodological basis, business terms.

Ish yuritish terminlari har qanday ilmiy terminosistema kabi tushunchalarning shunchaki ro'yxati emas,

balki o'ziga xos semiologik tizimdir. Bu terminlar ayni paytda ijtimoiy hayot, iqtisodiyot, huquq, menejment, savdo va ta'lif sohalarida keng qo'llanuvchi, ish yuritishga bilvosita aloqador tushunchalarning muayyan tizimini ifodalaydi. Terminologik tizimda tabiiy tilga xos lingvistik qonuniyatlar ham o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ish yuritish terminlarini ham tartibga solib turish zaruriyati mavjud. Ushbu maqolada (O'zbek tilining izohli lug'atidagi) ish yuritish terminlarining struktur tavsifini o'rganish orqali milliy va o'zlashma terminlardan ish yuritish terminologiyasining shaklga oid ba'zi xususiyatlari haqida fikr yuritiladi, taklif va mulohazalar keltiriladi.

Umumtil leksikasida birikma shaklidagi birliklarning mustaqil atov birliklar sifatida qo'llanishi kam kuzatiladigan holatdir. Ayrim hollarda leksik lakunalar bilan bog'liq ravishdagi bunday qo'llanishlarga duch kelishimiz mumkin.[1. 258]

Ko'p hollarda terminlar struktur tarkibi jihatidan turlarga ajratilganda o'zak miqdoriga ko'ra sodda, qo'shma, juft, murakkab, birikmali, birikma terminlar qo'llangan holda guruhlanadi. Shuningdek, terminlarning morfologik jihatdan, asosan, ot so'z turkumiga oidligi formal-struktur jihatdan qisqartma shakldagi terminlar ham mavjudligi tabiiy hol ekanligini ko'rsatadi. Ish yuritish terminlari sistemasida ham qisqartma (abbreviations) terminlar mavjud. Ular haqida quyiroqda batafsil to'xtalamiz.

O'zbek tilining texnik terminologiyasini tadqiq qilgan olim R.Doniyorov terminlarni tuzilishiga ko'ra o'ziga xos tarzda tasniflaydi. U birdan ortiq leksik uzvdan tashkil topgan terminlarga sintaktik yo'l bilan hosil bo'lgan termin sifatida qaraydi. Uning fikricha, terminologiyada yakka so'zli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan hosil bo'lgan terminlar salmoqli o'rinni egallaydi. Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar, barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi [3.148]. Rus tilshunosi A.N.Kojin ham "terminlarda ifodalanayotgan narsaning belgisi shundoqqina ifodalanib turadi, ular bilish sari harakat jarayonida ijtimoiy ma'lumotlarni mustahkamlashda so'zdan iborat to'siqni oshib o'tishga yordam beradi" degan xulosani aytib o'tgan. Anglashiladiki, R.Doniyorov ushbu fikrga metodologik asos sifatida tayangan.

R.Doniyorov sintaktik usul bilan hosil bo'lgan texnik soha terminlarini ot+ot, nisbiy sifat+ot, sifatdosh+ot, jarayon nomi+ot tipidagi ko'rinishlarga ajratgan. Olim ot+ot tipidagi terminlarni I tip izofali, II tip izofali, III tip izofali turlarga bo'lgan. U bunday terminlarni yasalishi jihatidan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar sifatida, tuzilishi jihatdan esa

qo'shma terminlar sifatida baholagan. [4.148]

R.Doniyorovning texnik terminlar tasnifida ayrim e'tiborgamolikjihatlarko'zga tashlanadi. Birinchidan, olim sintaktik usul bilan yasalgan terminlar sirasida fe'l turkumiga mansublarini ajratmaydi. Ikkinchidan, ayrim sintaktik usul bilan hosil bo'lgan terminlarning qoliplarini morfologik (masalan, ot+ot tipidagi), ba'zilarini semantik (jarayon nomi+ot) asosda belgilaydi. Umuman olganda, R.Doniyorov texnik terminlarni tuzilishi jihatidan an'anaviy tarzda sodda va qo'shma turlarga ajratadi.

O'zbek tili ish yuritish terminologiyasi bo'yicha maxsus tadqiqot olib borgan N.Sadinovaning ilmiy ishida sohaga oid terminlar tuzilishiga ko'ra qo'shma, yasama, birikma terminlarga ajratib o'rganiladi. [5.62] Olima sohaga oid terminlarni ajratishda morfologik va sintaktik usul mahsuldor ekanligini ta'kidlab, sintaktik usul bilan yasalgan sohaga oid qo'shma terminlarni yasalish modeliga ko'ra ot+ot: xatjild, yilchorak, yukxat; sifat+ot: qimmatbaho, xomashyo; son+yasama ot: birbutunlik, o'nkunlik; olmosh+fe'l: kimoshdi; ravish+ot: kamunum, kammahsul kabi guruhlarga ajratadi. Shuningdek, ish yuritish sohasida yasama terminlarni hosil qilishda 20 ga yaqin so'z yasovchi qo'shimcha ishtirok etishini, lekin ularning bu soha terminlarni hosil qilishdagi imkoniyatlari bir xil emasligini aytib o'tadi. Jumladan, -ma, -chi, -lik, -(u)v, -q(-iq, -uq, -ik), -im, -dor, -lash, -lashtirish kabi qo'shimchalar va -noma, -xona affiksoidlarining yasama terminlarni hosil qilishda faol ishtirok etishi kuzatilgan. Mazkur ishda ish yuritishga oid yasama terminlarni hosil qilishda -noma affiksoidining faollashgani va hujjat nomlarini yasovchi qo'shimcha sifatida maxsuslashgani hamda "Qisqacha ruscha-o'zbekcha-englizcha ish yuritish lug'ati"da noma so'zi yordamida hosil qilingan 30 dan ortiq termin keltirilgani qayd etilgan. N.Sadinovaning fikricha, "Muayyan affiks yoki affiksoidlarni maxsuslashtirish orqali qisqa, aniq va monosemantik terminlarni hosil qilish, birikma va tavsifiy terminlardan qutulish mumkin bo'ladi". Komponentlariga ko'ra murakkab terminlarning "birikma termin" shaklida qo'llanishi kuzatiladi. Qo'shma so'zlarning ko'pchiligi so'z birikmasi orasidagi sintaktik aloqaning yo'qolishi natijasida vujudga kelgan. Lekin juda ko'p yangi tushunchalar so'zlar orasidagi sintaktik aloqani saqlagan holda, ya'ni so'zlar sintaktik yo'l bilan birikkan holatda nomlanadi va "birikma termin"lar hosil qilinadi. N.Sadinova ham ishida "birikma termin" atamasini qo'llaydi va keyingi davrlarda ish yuritish sohasida birikma terminlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq holatlarni aytib o'tadi. Xulosa qilib aytganda, O'TILda berilgan ish yuritishga bilvosita daxldor terminlar tuzilishi jihatdan sodda,

qo'shma, juft, birikma, qisqartma terminlar guruhlariga birlashadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева. – М.: Изд-во «Советская энциклопедия», 1990. – С. 258; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2-е. – М.: Изд-во «Советская энциклопедия», 1969. – С.215; Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 49
2. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977. 148-bet.
3. Sadinova N. O'zbek tili ish yuritish terminologiyasi: Filol. fan. bo'yicha fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2022.
4. Sadinova N. O'zbek tili ish yuritish terminologiyasi: Filol. fan. bo'yicha fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2022.
5. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977. 62-bet.

Akbar RUZIYEV,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti kechki bo'lim boshlig'i, f.f.f.d., PhD  
[ruziyevakbar@navoiy-uni.uz](mailto:ruziyevakbar@navoiy-uni.uz)*

## TILSHUNOSLIKDA DISKURS ATAMASI TALQINI

**Annotatsiya:** maqlada diskurs, diskurs turlari va diskursni matn lingvistikasining predmeti sifatida, nutq tahlilini esa uning usullaridan biri ekanligiga aloqador fikrlar haqida so'z yuritiladi. Muallif nutqda diskurs keng va xilma xil namoyon bo'lishini, nutqiy vaziyatning turfaligi, o'zaro konfliktli obrazlar nutqi va xatti-harakatlarining o'ziga xos majmui diskurs tahlilni amalga oshirish zarurligiga aloqador xulosalarni beradi.

**Kalit so'zlar:** *individual, xususiy diskurs, mental omillar, adresat, kommunikativ muloqot, aniq, haqiqiy, faraziy, yagona, massiv.*

**Аннотация:** в статье обсуждается мысль о том, что дискурс, виды дискурса и дискурс являются предметом лингвистики текста, а анализ речи является одним из ее методов. Автор приходит к выводу о широте и разнообразии дискурса в киносценариях, многообразии речевой ситуации, специфике речи и поведения конфликтных образов, необходимости дискурсивного анализа.

**Ключевые слова:** *индивидуальный дискурс, ментальные факторы, адресат, коммуникативное общение, ясное, реальное, гипотетическое, уникальное, массовое.*

**Annotation:** the article discusses the idea that discourse, types of discourse, and discourse are the subject of textual linguistics, and that speech analysis is one of its methods. The author concludes that the discourse in the screenplays is wide and diverse, the diversity of the speech situation, the specificity of the speech and behavior of conflicting images, the need for discourse analysis.

**Key words:** *individual, private discourse, mental factors, addressee, communicative communication, clear, real, hypothetical, unique, massive.*

Nutqni har xil aspektlarda tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqotlar turli fan tarmoqlarining yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Nutqning muloqotga uzatishdan boshlab to qayta ishlash va qabul qilish jarayonlari muayyan lingvistikaga oid fan yo'nalishlarida alohida tadqiq qilinadi. Nutqning kommunikantlar tomonidan qabul qilinishi va o'zlashtirilishi har bir muloqot ishtirokchilarida individual xarakter kasb etadi. Ana shu individualliklarni tadqiq etuvchi lingvistik fan sohasi pragmalingvistika sanalsa, uning asosiy masalalaridan biri sifatida diskursni ko'rsatish mumkin.

Tilshunos olma L.Raupova "diskurs" termini tilshunoslikda o'tgan asrning 50-yillarida birinchi marta tilga olinganligini qayd etadi. Bu ibora

amerikalik tilshunos Z.Harrisning 1952-yilda nashr etilgan "Diskurs tahlili" deb nomlangan maqolasida ishlataligan. Tilshunos Sh.Gulyamova o'zining shu mavzu bo'yicha olib borgan izlanishlarida quyidagilarni qayd etadi: "diskurs, Zellig Harrisga ko'ra (1951), "Hozirgi deskriptiv tilshunoslikda birdan ortiq so'zlar, odatda, hisobga olinmaydi. Tilshunos, odatda, elementlarning o'zaro bog'liqligini bir vaqtning o'zida faqat bitta gapda ko'rib chiqadi. Bu materialning mumkin bo'lgan tavsifini beradi, chunki har bir so'z (yoki so'z turi) ichidagi elementlarning o'zaro aloqasi ishlab chiqilgan va boshqa nutq so'zlarning ketma-ketligi, ya'ni o'zaro bog'liqliklarga ega bo'lgan elementlarning ketma-ketligi sifatida tavsiflanadi. Bu cheklov shuni